

**Loyiha uchun quyidagilarni tayyorlang:**

- she'r,
- musiqiy jo'rlik,
- kuz mavzusida ko'rgazmali rasmlar, suratlar yoki fotosuratlar qatori.

Abdulla Oripov**Do'rmonda kuz**

Bog'imda mushuklar qoldirgan edim,
Daydib ketibdilar bechoralarim.
Barglarin to'kmoqda daraxtlar qadim,
U bilan to'kilar ezgu dardlarim.

Senga salom deyman so'ng bor, behijon,
Endi yerga yotding, soyabonim barg.
Nechun o'ksik qolding, chinor, jonajon,
Bog'larga nahotki keldi bodi marg.

**F.Shopen, “Kuz valsi”**

8

Nurulloh Oston

Yana kuz keldi

Buloqlar zilol,
Charaqlar hilol.
Shivirlab shamol –
Yana kuz keldi.



Xazonlar o'ynar,
Turnalar kuylar.
Boshlandi to'ylar –
Yana kuz keldi.

Yo'laklar xomush,
Yurakda yonish,
Chechakda nolish –
Yana kuz keldi.

Non to'la tandir,
Bulutlar sang'ir,
Qor hidi anqir –
Yana kuz keldi.



A.Vivaldi, “Kuz”



9